O'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi yo'nalishlari, "Pedagogik mahorat" fanining vazifalari, asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogik mahoratni egallash vositalari. O'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni. SHarq mutafakkirlari va allomalari mudarris (o'qituvchi)lar haqida. Olimlar K.Zaripov, M.Ochilov o'qituvchining kasbiy mahorati haqida.

**2-Mavzu. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari.**

Eng qadimgi davrlardan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davrlarda o'qituvchi, murabbiy va shogird masalalari. Ularning jamiyatda tutgan o'rni, pedagogik faoliyat borasidagi ijtimoiy qarashlari. "Avestoda" ta'lim va tarbiya muammolari.

SHarq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Unsurul Kaykovus, Sa'diy SHeroziy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husay Voiz Koshifiy va boshqalarning ijodiy meroslarida mudarrislarni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar, ularning mahorati, muloqot va muomala madaniyati, munosabatga kirishish mahorati, ularni egallashga oid ilg'or fikrlari.

Antik davrdagi maktablar, Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlari. Yunon faylasuflari Suqrot, Demosfen, Dinarx. Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil kabilarning asarlarida pedagoglar hamda ularning notiqlik san'ati to'g'risidagi g'oyalar.

Yevropa olimlari Ya.A.Komenskiy, G.Pestalotstsi, A.Disterverg, A.I. Gertsen, L.N. Tolstoy, I.G. CHernishevskiy, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqalarning o'qituvchi, uning kasbiy tayyorgarligi hamda o'qituvchi mahoratining ta'lim-tarbiya jarayonidagi alohida o'rni borasidagi qarashlari. Hozirgi davrda jamiyatning o'qituvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtirishga qo'yadigan talablari hamda ularning burch va mas'uliyatlari.

qo'yiladigan muammolar. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi qizg'in mehnati evaziga shakllanib boruvchi umumbashariy qadriyatlar.

**19-Mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni.**

O'qituvchining o'z-o'zini boshqarishida, o'z-o'zini takomillashtirishida refleksiyaning roli. Refleksiya tushunchasining pedagogik-psixologik, falsafiy talqini. Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andrologika, evkistika, kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot ob'ekti sifatida e'tirof etilishi.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanishi. Uning tasnifi bo'yicha refleksiya turlari. N.V.Kuzьmina, A.V.Xristeva, V.A.Krivosheev, A.A.Bizyaeva, Yu.N.Kulyutkin, G.M.Kodjaspirova kabi olimlarning pedagogik refleksiya haqidagi fikrlari.

Kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z o'zini rivojlantirishda, shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi, o'qituvchining o'z–o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos yaratishi, pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlar pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa ekanligi, refleksiya – asrlar davomida o'qituvchining kasbiy faoliyatida to'planib kelingan tajribalarida, uning xulq–atvori, muloqot madaniyati, tafakkurida yig'ilgan eski andozalarni, kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini berishi.

Kasbiy pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z–o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalari asosida o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashishi hamda uning rivojlanishini ta'minlashi. o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlangani sari uzluksiz pedagogik kasbiy mahorati va o'z – o'zini takomillashtirish imkoniyati vositalari.

Kasbiy refleksiyaning o'qituvchi pedagogik faoliyatini tashxislashga, ya'ni diagnostika qilishga ta'siri. Pedagogik diagnostika funktsiyalari. O'qituvchi o'z kasbiy pedagogik faoliyatini tahlil va o'z–o'zini tahlil qilish bosqichlari.

O'qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash kontseptsiyasi ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish imkoniyatini ta'minlashi, pedagogik tashxis o'qituvchining pedagogik faoliyatida erishayotgan yutuqlarini belgilovchi xarakter kasb etishi va u bevosita o'qituvchining kasbiy refleksiyasiga tayanishi.

**IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Fan bo'yicha rejalashtirilgan seminar mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Seminar mashg'ulotlarda tadbiqlar keng qo'llanilayotgan asosiy usullarni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ma'lum sababalarga ko'ra ma'ruzaga kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni seminar mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

## 18-Mavzu. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish.

Olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijalar berishini yetuk va malakali mutaxassislar ta'minlashi va ularni voyaga yetkazish, ta'lim–tarbiya berish, o'qituvchiga yuklatilgan talablarning kun sayin ortib borishi, ularni hal etish vazifasi o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqligi. Pedagogik mahoratning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishida o'z aksini topishi, o'qituvchi o'zining qizg'in mehnati jarayonida pedagogik mahorat komponentlarini o'zlashtirishi.

Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda samarali tashkil etish vositalari va o'quvchilar bilan olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda amal qilishi lozim bo'lgan boshlang'ich yo'nalishlar. I.P.Radchenko va R.Rasulova kabi olimlarning o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish to'g'risidagi g'oyalari.

O'qituvchining mehnat sharoiti, kun tartibi kompleks tushuncha ekanligi, unda o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda takomillashtiruvchi tamoyillar. O'qituvchi mehnatini nazorat qilish va hisobga olishning muntazamligi, izchilligi.

Ob'ektiv-shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri ekanligi, uning sifat va samaradorligini oshiruvchi omillar. Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy mahorat komponentlari. Iqtidor va qobiliyatning o'qituvchi mehnatiga, sezgirligiga ta'siri. O'qituvchi mehnatida pedagogik texnikaning roli, ayniqsa o'z-o'zini boshqarish malakalarida namoyon bo'lishi.

O'qituvchining kasbiy mahoratida mehnat, uning ixtisosligi bo'yicha egallagan bilimlar darajasi va kasbiy tajribalari asosida paydo bo'lishi. O'qituvchining yoshi va ish staji – mehnatga ilmiy yondashish jarayonining turli bosqichlarini aks etishi, unda ijodiy energiyaning yuzaga kelishidan tortib yetilishigacha va so'nishigacha bo'lgan ob'ektiv–shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga olishi.

Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda samarali tashkil etishda kasbiy turg'unlikning muhim ahamiyatga ega ekanligi. Ijodkorlik – o'qituvchining o'z mehnati jarayonida mustaqil faoliyat olib borishi, kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'lishi. Ijodkorlik – bu o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonida qizg'in mehnati natijasida sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror ilmiy yangilikni paydo qiluvchi faoliyat ekanligi.

O'qituvchining o'rtacha yoshiga nisbatan mehnat layoqatini oshirishda e'tiborli holatlar tizimi. O'qituvchi mehnatini va ma'naviy dunyosini bezaydigan qadriyatlar tizimi. O'qituvchi mehnatida pedagogik qadriyatlarni takomillashtirishga nisbatan

## 2-Modul. O'qituvchining kasbiy faoliyati

### 3-Mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik qobiliyatning ahamiyati.

Qobiliyatning pedagogik-psixologik tavsifi. Govard Gardner ta'limotida inson qobiliyatlari tizimi. Psixolog olima Olga Matveeva o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan pedagogik qobiliyatlar tizimi to'g'risida. Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlashi.

Qobiliyat va bilim. Qobiliyatga yaqin turadigan tushunchalar. Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati va uning ijodkorligi. Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'lishi. Iqtidor, iste'dod, daholik, talant, o'qituvchi intellektining asosiy sifatlari va xususiyatlari.

Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynashi. O'qituvchi qobiliyatining asosiy xususiyatlari, uning yuksak pedagogik-psixologik bilimlarni egallashi natijasida doimiy shakllanib borishi.

O'qituvchi pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish funktsiyalari. Pedagogik qobiliyatlarning o'z funktsiyasiga ko'ra umumiy va maxsus turlarga bo'linishi. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlari.

O'qituvchi irodasi, sabr-toqati, maqsadga intilishi, o'z hatti-harakatlarining to'g'riligiga nisbatan qat'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatlari, his-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga ta'lim va tarbiyaviy jarayondagi barcha yo'nalishlar bo'yicha javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi kabi didaktik xususiyatlari.

### 4-Mavzu. O'qituvchi pedagigik faoliyatida kommunikativ qobiliyatning o'rni.

Kommunikativ qobiliyat – o'qituvchi kasbiy faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqa o'rnatishning asosiy qonuniyatlaridan biri ekanligi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgani kommunikativ qobiliyatning yo'nalishlari. O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishontira olish va jalb qilish – o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati ekanligi.

Muloqot orqali ta'sir etish. Muloqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari. O'qituvchi tomonidan muloqotga kirishish jarayonida qo'llaniladigan muomala uslublari. Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri ekanligi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish usullari. Tarbiya jarayonida kommunikativ munosabatning o'ziga xos qoidalari.

O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi: "Yuzni o'qish san'ati", o'zgalar holatini tushuna olish, o'zini namoyon qila bilish, nutq vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruhiyatini tushuna olish. O'qituvchi kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish. Xushmuomalalikning yosh o'qituvchi amal qiladigan mezonlari.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish uslublari: bo'lajak muloqot modulini ishlab chiqish, qisqa muddatli dars yoki tadbirlarni o'tkazish, o'z ustida ishlashga doir mashqlar.

**5-Mavzu.** O'qituvchining pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi. Kasbiy pedagogik muloqot. A.N. Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy didaktik ahamiyati to'g'risida. Pedagogik ta'sirning o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlari bevosita muloqot asosida amalga oshirilishi.

Kasbiy pedagogik kommunikativ muloqotning muhim komponenti. o'qituvchining o'z fikr va mulohazalarini, emotsional his–tuyg'ularini aniq ifoda eta olish mahorati.

O'qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish, pedagogik faoliyat tufayli sodir bo'ladigan qayg'urish, his-hayajon, murakkab hayotiy va pedagogik maqsadga qaratilgan o'qituvchi tashvishlarining yig'indisi.

O'qituvchilar kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan pedagogik muloqotning asosiy yo'nalishlari. Darsda o'quvchilar bilan muloqotni tashkil qilishda o'qituvchining tashabbuskorligini namoyon qiluvchi muhim vaziyatlar.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish uslublari. Muloqot jarayonida tashabbusni boshqarish.

Uzluksiz ta'lim tizimida turli mazmundagi pedagogik muloqotni tashkil etish jarayonining milliy asoslari va mazkur jarayonda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi – O'zbekiston Respublikasi Davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi. O'qituvchining hamkasblari, o'quvchilar, jamoat tashkilotlarining vakillari va ota-onalar bilan pedagogik muloqot olib borishi.

**6-Mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.**

maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratishi, nazariy asoslangan uzluksiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishini ta'minlashi.

Pedagogikada tarbiya texnologiyalarini modellashtirish. Tarbiya texnologiyalarining samaradorligini oldindan ko'ra bilish yoki loyihalashtirishda va tadqiq etishda modellashtirishdan foydalanish to'g'risidagi muammo "pedagogik modellashtirish" nomini olganligi, predmetli va belgili modellashtirishlar.

Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini samarali modellashtirish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, har bir o'quvchining tarbiya jarayonidagi faoliyatini yaxshi bilish. Bunda o'qituvchi bilishi lozim bo'lgan holatlar. O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun o'qituvchi-tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan tarbiyaning umumiy vazifalari. Tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlarini o'qituvchi tomonidan modellashtirilishi.

Tarbiya qonuniyatlari va tarbiya mazmuni tamoyillarining modellashtirilib o'rganilishi. Tarbiya jarayonida modellashtirish xususiyatlarini namoyon etuvchi tarbiyaviy qonuniyatlar.

Pedagogikada turli zamonaviy pedagogik vositalar va metodlarni samarali qo'llash uchun tarbiya texnologiyalaridan foydalanish.

O'quvchining tarbiya ko'rganligini aniqlash (diagnostika) — bu o'qituvchi tomonidan shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik darajasini belgilovchi jarayon ekanligi. Uning natijalarini tahlil qilish asosida tarbiyalash texnologiyasi asosiy unsurlarining yo'naltirish va mazmunini aniqlashtirish yoki tuzatish mumkinligi. Tarbiya ko'rganlik darajasini aniqlash jarayonining ommaviy, an'anaviy va diagnostik metodlari.

**5-Modul. O'qituvchi mehnatini tashkil etish. 17-Mavzu. O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosidagi faoliyati.** asosiy didaktik funktsiyalarni samarali tashkil etishi. Kompyuterning o'qituvchilik vazifasini bajarishi jarayonlari, kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini oshirishi uchun mustaqil bajaradigan vazifalar. Mustaqil ta'limni ta'minlashda o'qituvchi bilishi lozim bo'lgan kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi) mazmunining tuzilmalari.

Kompyuter texnologiyalari asosida ta'lim berish imkoniyatlari. O'quvchilar bilimini kompyuter texnologiyalari orqali o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi vositalari.

O'qituvchida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish. Zamonaviy o'qituvchining kompyuter va axborot texnologiyalari asosida pedagogik mahoratini, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishi. Masofaviy o'qitish kurslarining modulli tizimi.

O'qituvchining axborot madaniyati, axborot modelini qurish malakasini nazarda tutishi. Pedagogik mahorat tarkibiy tuzilishida axborot madaniyatini oshirish omillari. Pedagogik ta'lim muassasalarining yagona axborot makoni (portal), axborot ta'lim resurslari.

bilishi Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilganligi. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar mazmuni va uning fazilatlari, vazifasi, burchi, mas'uliyatlari.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sifatida. O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati dars jarayonida namoyon bo'lishi. Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi. Zamonaviy didaktikada dars turlari.

**14-Mavzu. Zamonaviy dars kombinatsiyalari.** O'qituvchining darsga tayyorgarligida ko'zga tashlanadigan uch maqsad. Ta'limning yordamchi shakllari. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar mazmuni va vazifalari.

Ijodiy kayfiyat – o'qituvchi aql-idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning bir qirrasi sifatida. Ijodiy kayfiyatni ta'lim jarayonida shakllantirishning ba'zi vositalari. Ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahorati omilkorligini ta'minlovchi xususiyatlar.

O'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat nuqtai nazaridan ushbu tashkillashtiriladigan ta'lim jarayonini boshqarish bosqichlari.

**15-Mavzu. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati.**

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarida yosh avlodni voyaga yetkazishda tarbiyaning o'rni haqidagi ta'riflar. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etilishi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi.

Tarbiyaviy faoliyat avvalo o'qituvchining pedagogik mahorati va yuksak tashkilotchilik faoliyatiga bog'liqligi. O'qituvchining tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi jarayonlar.

Pedagogikada o'qituvchining tarbiyachilik mahorati doimiy o'zgarib turishi va uning tarkibiy qismlari.

Pedagogik-tashkilotchilik faoliyatining mohiyati. Pedagogning tashkilotchilik ko'nikmasi tavsifnomasi: to'g'ri ijtimoiy fikrni uyg'ota olish; jamoaning shaxsga ta'sirini ta'minlay bilish; bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish; qarorlarni hamkorlikda qabul qilish; shaxs va jamoadagi u yoki bu o'zgarishga bir paytning o'zida tez moslasha olish; muloqotning demokratik uslubidan foydalanish.

**16-Mavzu. O'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi.**

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda avvalo o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng olijanob vazifa ekanligi. SHarq allomalari ilmiy meroslarida ham komil inson tarbiyasi. O'qituvchi bilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy jarayonning asosiy xususiyatlari. Tarbiyaning texnologiyaviyligi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy

Pedagogik faoliyatida o'qituvchi muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi. muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ularning xilma-xilligi. Muloqot pedagogik–psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri ekanligi va uning falsafiy, ilmiy talqini. Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatishi, uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladigan xususiyatlari.

**7-Mavzu. Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot.**

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad. Muloqotning pedagogik ta'rifi. A.S. Makarenko va V.D. Suxomlinskiy kabi olimlarning o'qituvchi muloqoti haqidagi fikrlari. O'qituvchining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi, uning funktsiyalari.

Rus pedagog olimi V.A.Kan-Kalikning ta'limoti bo'yicha, o'qituvchining pedagogik muloqoti yo'nalishlari. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi. Pedagogik muloqot o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinishi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalarida o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti printsiplari. Jonli muloqot – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, o'qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyat ekanligi. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimiy qo'yadigan mustaqil fikr-mulohazalari. Yosh o'qituvchining jonli muloqotni yaratishda e'tirof etiladigan vazifalari.

O'qituvchi pedagogik muloqotining uch shakli. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqotining funktsiyalari. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotni samarali tashkil etish usullari va muloqotda tarbiyaviy jarayon tamoyillari.

O'qituvchining rahbar sifatida o'quvchilar jamoasini boshqarishida qo'llaydigan muloqot usullari. Hozirgi kunda yosh o'qituvchining o'quvchilar jamoasini boshqarish bosqichlari. O'qituvchi muloqotini ta'minlaydigan talablar.

**3-Modul. Pedagogik nizolar va ziddiyatlar. 8-Mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nizolar va ziddiyatlar. Ularni bartaraf etishning pedagogik-psixologik talqini**

Pedagogik nizolar va ziddiyatlar talqini. O'qituvchining pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaviy munosabatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tahlili.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro pedagogik muloqotga kirishishida uchraydigan pedagogik nizolar va ziddiyatlar hamda ularning oldini olish yo'llari. Yosh o'qituvchilar faoliyatida uchraydigan nizoli vaziyatlarning asosiy sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari. Hozirgi kunda pedagogik nizolarni paydo qiluvchi tomonlar haqida ma'lumot. Nizolarning kelib chiqish sabablari, psixologik xususiyatlari. Pedagogik nizolar ishtirokchilariga ko'rsatiladigan pedagogik va psixologik ta'sir, yordam berish. Ta'lim va tarbiya jarayonida vujudga keladigan pedagogik nizolarni oldini olish, uning asl mohiyatini psixologik jihatdan tahlil qilish, bunda yosh o'qituvchilarning tajribasini yanada boyitib borish. Ularga amaliy yordam berishni uzluksiz tashkil etish.

**4-Modul. Kasbiy faoliyat mazmuni. 9-Mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nazokat va odob-axloq.**

Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi. Pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig'indisi ekanligi.

Pedagogik nazokat me'yorlari va omillari. O'qituvchi pedagogik nazokati ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berish, o'quvchilarning hatti-harakatini to'g'ri idrok etish, sabot va matonat, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatda pedagogik nazokatni qo'llashi natijasida erishadigan yutuqlari. O'qituvchining pedagogik nazokati mohiyatida etnopedagogik tuyg'ular, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, o'zbekona tavoze va muomala madaniyati, o'quvchilar jamoasiga singib keta oladigan har qanday ijtimoiy muhitga moslashuvchi individual qobiliyatlar, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar mujassamlashganligi. Pedagogik nazokatning asosiy xususiyatlari.

O'qituvchining dilkashlik xususiyati, pedagogik faoliyatda uning o'rni. Xushmuomalalilik va dilkashlik shaxsning insoniy fazilati sifatida o'qituvchilarning ham kasbiy faoliyatida yuksak fazilatlaridan biriga aylanishi. O'qituvchi dilkashligining – uchta tarkibiy qismi va mezonlari.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazishi, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shakli ekanligi.

Yosh o'qituvchilarning kasbiy –pedagogik dilkashligini o'rganish dasturi.

**10-Mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati va uni shakllantirish uslublari.**

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmui ekanligi. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi.

Pedagogik texnikaning ikkita guruhga bo'lib o'rganilishi, uning psixologik va fiziologik xususiyatlari. Ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi", "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishi. Adiba T. Sodiqova asarlarida hozirgi kun o'qituvchisiga qo'yiladigan "murabbiylik shartlari".

Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi: mimika va pantomimika. Pantomimik harakatlarda o'z hissiy holatini nazorat qilish. Pedagogik faoliyatda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'qituvchi mahoratini oshirish uchun qo'llanuvchi jarayonlar. Pedagogik texnikani egallashning asosiy usullari.

**11-Mavzu. O'qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati.**

Notiqlik san'atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solinganligi. Notiqlik san'atining yetuk namoyondalari o'zlarining chiroyli va baland, ta'sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuriga, ongiga kirib, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganligi. Yunonistonda notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari hamda noyob asarlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Sokrat, Platon, Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, TSitseron, Kvintilian kabi namoyondalar Yunonistonning mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganligi.

O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilishi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi. SHarq mutafakkirlari asarlarida notiqlik san'ati to'g'risidagi fikrlar. Til va nutqning qiyosiy tahlili. O'qituvchining nutq madaniyati va unga xos bo'lgan vositalar.

**4-Modul. O'qituvchi mahorati. 12-Mavzu. Pedagogik nutq funktsiyalari.** Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash: tovush, diapazon, tembr, diktsiya, ritmika. Bo'lajak o'qituvchi nutqini takomillashtirish yo'nalishlari.

**13-Mavzu. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati.**

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishi, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta